

**FURQAT ASARLARI TILINI O'RGANISH VA FURQATSHUNOSLIK
MASALALARI**

**ВОПРОСЫ ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКА ПРОИЗВЕДЕНИЙ ФУРКАТА И
ИЗУЧЕНИЯ ФУРКАТА**

**ISSUES OF LEARNING THE LANGUAGE OF FURQAT'S WORKS
AND FURQAT STUDY**

Qo'ldasheva Dilnavoz Xatamovna,

FarDU katta o'qituvchisi,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

Annotatsiya: Qo'qon adabiy muhitining yirik vakili Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat she'riyati ma'rifatparvarlik davri adabiyoti va tili rivojiga qo'shilgan hissa bo'lib, ijodkorning badiiy merosini lingvopoetik asosda tadqiq etish, shoir asarlariga xos leksik-semantik, shuningdek, funksional-uslubiy xususiyatlarini keng o'rganish dolzarb ahamiyatga ega. Mazkur maqolada shoir hayoti va ijodini o'rganishga doir olib borilgan umumfilologik tadqiqotlar tahlili va xulosalari bayon etilgan. mustaqillik yillar Furqat ijodi tilini tadqiq etishga oid ishlar salmog'i ochib berilgan.

Аннотация: Поэзия Фурката сына Закирджона Халмухаммада, крупного представителя литературной среды Коканда, представляет собой вклад в развитие литературы и языка эпохи Просвещения, а также широкое исследование функционально-методических особенностей. неотложной важности. В данной статье представлены анализ и выводы общефилологических исследований, проведенных по изучению жизни и творчества поэта, а также раскрыт объем работы, связанной с исследованием языка творчества Фурката в годы независимости.

Annotation: The poetry of Furqat son of Zakirjon Khalmuhammad, a major representative of the literary environment of Kokand, is a contribution to the development of the literature and language of the Enlightenment period. , as well

as a wide study of functional-methodical features is of urgent importance. In this article, the analysis and conclusions of general philological studies conducted on the study of the poet's life and work are presented, and the amount of work related to the research of the language of Furqat's work during the years of independence is revealed.

Ключевые слова: литературная среда Коканда, творчество Фурката, фуркатоведение, язык и стиль, лирика и газели, Ш. Юсупов, Н. Джабборов, Х. Расул.

Key words: Kokand literary environment, Furqat's work, furkat studies, language and style, lyric poetry and ghazals, Sh. Yusupov, N. Jabborov, Kh. Rasul.

Kalit soʻzlar: Qoʻqon adabiy muhiti, Furqat ijodi, furqatshunoslik, til va uslub, lirik sheʼr va gʻazallar, Sh.Yusupov, N.Jabborov, X.Rasul.

KIRISH

Istiqlolgacha boʻlgan davrda Furqat hayoti va ijodini ilmiy oʻrganish, ommalashtirish borasida muayyan yutuqlar qoʻlga kiritilgan. Lekin shoʻro davridagi tadqiqotlarning aksariyatida kommunistik mafkura talablari asosidagi yondashuv yaqqol seziladi. Mustaqillik tufayli furqatshunoslik ham oʻzbek filologiyasining tarkibiy qismi sifatida mafkuraviy tazyiqlar taʼsiridan qutulgan shoir hayoti va ijodiy faoliyatini oʻrganishda yangi-yangi muvaffaqiyatlarning qoʻlga kiritilishiga zamin boʻldi. Shu bois ham Furqat adabiy merosi oʻrganilishini ikki davrga – istiqlogacha va istiqoldan keyingi davrlarga boʻlib tahlil etish oʻrinlidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shoir adabiy merosi koʻplab adabiyotshunos va tilshunos olimlar tomonidan oʻrganilgan boʻlib, N.Ostroumov, Gʻ.Gʻulom, U.Tursun, B.Oʻrinboyev, H.Rasul, A.Abdugʻafurov, A.Qayumov, SH.Yusupov, N.Jabborov kabi olimlar Furqat ijodiyoti toʻgʻrisida salmoqli tadqiqotlar olib borishgan. M.Shayxzoda, I.Moʻminov, M.Yunusov, Gʻ.Karimov, X.Rasul, A.Qayumov, Sh.Yusupov, A.Abdugʻafurov, T.Neʼmatov, A.Madaminov kabi olimlarning tadqiqotlarida shoir asarlarining qoʻlyozma manbalari va matniy tahlili masalalari haqida soʻz

yuritilgan. Olim N.Jabborov o'z tadqiqot ishi orqali Furqat asarlarining qo'lyozma bayoz va majmualardagi silsilasini tadqiq etishga e'tibor qaratadi, mavjud nashrlarini ilk manbalar bilan qiyosiy tahlil etadi. T.Ne'matov, A.Shokirov, A.Murodov, A.Juvonmardiyevlar Furqat she'rlarini manbashunoslik va matnshunoslik nuqtayi nazardan tahlil qilganlar.

Anglashiladiki, Furqat merosining ilmiy tadqiqi borasida salmoqli ishlar olib borilgan, biroq shoir ijodini tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish borasida alohida tadqiqotlar qilinmagan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, Furqat o'zbek adabiyoti va ma'naviyati tarixida shoir va adib, adabiyotshunos, tarixchi, tarjimon va elshunos sifatida nom qoldirgan. Uning ijodi tadqiqi bilan shug'ullangan olimlarning izlanishlari natijasida Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat haqida to'laqonli ma'lumotlar xalqimizga yetkazildi. Chunonchi, Furqat hayoti va ijodini o'rgangan olimlar Begali Qosimov va Nurboy Jabborov [14]ning bu boradagi ilmiy yutuqlarini alohida qayd etish lozim. Mazkur tadqiqotlar xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning Furqat siymosi va uning yuksak adabiy-ma'naviy merosi, shoirning nafaqat ijodkor, balki qomusiy olim sifatida milliy ma'naviyatimiz rivoji yo'lida ado etgan mehnatlari bahosini anglashi uchun xizmat qiladi.

Shoir ijodini o'rganish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, filologiya fanlari doktori Xolid Rasul Furqat asarlarining chop etilishi va xalqimizga yetkazilishiga munosib hissa qo'shgan. Olim Furqat "Tanlangan asarlar"ini jami yetti marta (1940- yildan 1990-yillargacha) nashr ettirgan. Bular ichida, Furqat "Asarlar majmuasi"ning turli manbalar asosida tayyorlanib, arab yozuvida chop etilgan ikki jildlik nashri, ayniqsa, alohida ahamiyatga ega. Mazkur nashr shoirning shu paytgacha e'lon qilingan "Tanlangan asarlar"iga nisbatan ancha mukammal ekanligi bilan ajralib turadi [14]. Shuningdek, adabiyotshunos N.Hotamovlar professor G'.Karimovlar ham 1959-, 1973-yillarda shoir asarlarini chop etish ishlariga yetakchilik qilishgan. Qolaversa, Furqatning "Tanlangan asarlar"i 1958-,

1962-, 1972-yillarda rus tiliga, 1989-yilda xitoy va uygʻur tillarida ham nashr qilingan.

Furqat ijodining filologik nuqtayi nazardan oʻrganilishi uning hayotlik davridan boshlangan. “Turkiston viloyatining gazetasi”ning oʻn uchta sonida shoir tarjimai holi eʼlon qilingan. Shoirning jahongashtalik yillarida, xususan, rus missioneri N.P.Ostroumov[5] 1896-yili oʻzining “Sarti” asarida uning “Ahvolot” asari, “Toshkent shahrida boʻlgon nagʻma bazmi xususida”, “Bal xususida” manzumalarining ruscha tarjimasini nashr ettiradi. 1894-yili Furqatning “Muxammas Muhammad Xudoyorxon tilidan” asarining ruscha tarjimasi Sankt-Peterburg [8]da bosilib chiqadi. Shuningdek, ushbu asarning rus tilidagi tarjimasi, asar haqidagi izohlar ilova qilingan holda Rusiya Arxeologiya jamiyati Sharq boʻlimi Axboroti VIII jildida eʼlon qilinadi. Rus olimi A.N.Samoylovich sheʼriy maktubga kirish va soʻngsoʻzlarini yozadi va uni toʻlaligicha mazkur “Axborot” [8] da nashr ettiradi.

Eʼtiborli jihati, jadidlar ham shoir hayoti va ijodiga qiziqish bilan qaraganlar. Furqat va uning jurnalistik faoliyati toʻgʻrisida maqola Ismoilbek Gaspirali tomonidan nashr etilgan “Tarjimon” [9] gazetasida, shuningdek, shoirning “Muxammas Muhammad Xudoyorxon tilidan” asari, Orenburgda nashr etilgan “Shoʻro” jurnali [2]da chop qilingani buning isbotidir.

Taʼkidlanganidek, oʻzbek filologiyasida furqatshunoslikning shakllanishi va rivojlanishida Xolid Rasul tadqiqotlari [7] alohida oʻringa ega. U oʻzining “Zokirjon Furqat ijodi”, “Furqat - maʼrifatparvar, demokrat shoir” nomli kitoblari orqali shoir ijodi tadqiqiga bagʻishlangan monografik ishlarning ilk namunalarini yaratdi. 1959-yili olim yana Furqat ijodiyoti tadqiqini munosib davom ettirdi. Uning “Furqat” tanqidiy biografik ocherki eʼlon qilindi. Ayni shu yillar Furqat adabiy merosini oʻrganishning muhim davri hisoblanib, furqatshunoslik muhim manbalar bilan boyidi.

Furqat tavalludining 100 yilligiga bagʻishlab chop etilgan “Furqat va Muqimiy haqida maqolalar” va “Zokirjon Furqat” nomli maqolalar toʻplamlari shoir hayoti va ijodini oʻrganishdagi muhim manba hisoblanadi. Mazkur

to'plamdan o'rin olgan materiallar o'sha davrda Furqat ijodining muhim jihatlariga bag'ishlanganligi, shoir hayoti va ijodiga oid zarur xulosalar chiqarilganligi bilan qimmatli hisoblanadi.

1960-yili olim G'.Karimovning "Sharq yulduzi" jurnalida e'lon qilingan "Furqat hayoti va ijodiga doir ba'zi materiallar" maqolasida o'sha paytda Qozog'iston Markaziy Davlat arxivida saqlangan, keyinchalik Toshkentga, O'zbekiston Markaziy Davlat arxiviga ko'chirilgan muhim manba – N.P.Ostroumov shaxsiy fondidan aniqlangan Furqatning xorijdan yo'llagan 18 ta dastxat maktubi, 4 ta ilmiy-etnografik asari haqida ma'lumot beriladi. Ularni o'rganishning shoir hayoti va ijodini tadqiq etishdagi ahamiyati to'g'risida ilmiy xulosalar chiqariladi. G'.Karimovning mazkur tadqiqoti, ayniqsa, shoirning chet ellardagi hayoti hamda qizg'in ijodiy faoliyatini o'rganishda yangi sahifa ochdi [14]. A.Abdug'afurovning "Zokirjon Furqat" kitobi esa shoir hayoti va ijodi tadqiqiga bag'ishlangan birinchi yirik monografiya [1] hisoblanib, unda shoir merosi o'sha davr furqatshunosligining mavjud yutuqlarini o'zida jamlagan holda tadqiq etilgan.

Shoirning bir qancha asarlari ilk marta A.Qayumovning "Shoir Furqat" asari [6] orqali ilmiy istifodaga kirib kelgan va ba'zilar yangicha talqin etilgan.

Sh.Yusupovning "Furqat yo'llarida" monografiyasi [10] esa Furqatning hayoti va ijodi to'g'risida arxiv hujjatlari, ishonchli manbalar asosida muhim mulohazalar bayon qilingani bilan e'tiborga molik. Sh.Yusupov keyinchalik o'zining doktorlik dissertatsiyasi [11]da ham mazkur mulohazalarini yangi dalillar va ilmiy xulosalar bilan boyitadi. Shuningdek, olimning "Xudoyorxon va Furqat" kitobi [12]da Qo'qon xonligining so'nggi yillarida Xudoyorxon boshiga tushgan ayanchli qismat, aynan o'sha davrda rus istilochilari qilmishidan xalq tortgan jabr-sitamlar, mash'um davr voqeliklariga Furqat munosabatining tarixiy, falsafiy va badiiy talqini ifoda etiladi. O'z navbatida mazkur ijtimoiy jarayonlarning shoir ijodining leksik tarkibiga ta'siri, lirik she'rlari va g'azallarida davr tili elementlarining olib kirilgani bayon etilgan.

Ma'lumki, har qanday ijtimoiy jarayonlar o'sha davr tiliga ta'sir etuvchi birlamchi omillardan sanaladi. I.Mo'minovning "O'zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixidan" (1960), H.Vohidovning "Turkistonda ma'rifatparvarlik g'oyasi" (1979) asarlari, V.Zohidov, M.Xayrullayevlarning ilmiy izlanishlarida shoir asarlari badiiy matnining davr tili bilan bog'liq xususiyatlari haqida bayon etiladi. Shuningdek, "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligi va O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot instituti olimlari tomonidan nashr etilgan "O'zbek adabiyoti tarixi" (1980) kitobining V jildida shoir adabiy merosining boyligi, o'ziga xos til xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

Furqat shaxsi va adabiy merosiga xorijlik tadqiqotchilar ham qiziqish va e'tibor bilan qaragani, bu borada olib borgan izlanishlari diqqatga sazovordir. AQShda Kolumbiya universiteti professori E.Ollvort, Turkiyada boshqird olimi Ahmad Zaki Validiy, Majoristonda Y.Ekkman, Sharqiy Turkistonda Qodir Akbar, Ne'matullo Ubaydullo hoji, Arshildin Totliq kabi olimlar Furqat asarlari tadqiqiga qo'l urib, salmoqli yutuqlarga erishishgan. Shuningdek, ba'zi rus tadqiqotchilari "Furqat va Muqimiy she'rlarini 1972-yilda Leningradda alohida kitob holida nashr ettirgan" ligi manbalarda qayd etilgan.

Mustaqillik davri furqatshunosligida haqqoniy yoritilgan mavzulardan biri Furqatning Rusiya istibdodiga munosabati masalasiekanligini ta'kidlash joiz. Chunki aynan mazkur yo'nalishdagi o'rganishlar ma'rifatparvar shoirning mustamlaka siyosati bilan murosasiz holda yashagani, mazkur siyosatning xalqimiz taqdiridagi ayanchli oqibatlarini o'z ijodi orqali jiddiy fosh etganligini ko'rsatib berdi. Tadqiqotlarda shoir asarlari tilida faol qo'llanilgan leksik birliklar, jumladan, rus tilidan o'zlashgan *telegrom*, *lampa*, *sovet*, *zal*, *vistavka* singari yuzdan ortiq so'zlarning mavjudligi muallifning rus madaniyati va tuzumining to'laqonli tarafdori ekanligini anglatmasligi aytib o'tiladi. Bundan tashqari, milliy istiqlol davri filologiyasida avval tadqiq etilmagan shoirning so'fiyona ruhdagi, diniy-ma'rifiy mavzudagi asarlari mohiyati va ahamiyatini o'rganishga, ommalashtirishga erishildi.

Ma'lumki, mustabid tuzum talablari asosida Furqat she'rlarining nashr etilishida talay to'siqlar yuzaga kelib, shoir she'rlari o'rinsiz qisqartirishlarga uchradi, mafkuraviy talablarga to'g'ri keladigan o'rinlari qoldirilib, uzuq-yuluq holatda chop etildi. Bu esa o'z navbatida olimlarning shoir asarlarining til xususiyatlarini to'laqonli o'rganishlariga qarshilikliklarni yuzaga keltirdi. Milliy istiqlol sharofati bilan shoir asarlarini aslicha, to'la e'lon qilish, uning ma'lum bo'lmay kelgan ko'plab asarlari, ularning dastxat nusxalari aniqlanib, milliy adabiyotshunosligimizning manbashunoslik yo'nalishida ilmiy izlanishlarga keng yo'l ochildi. Buning dastlabki samaralaridan biri sifatida Sh.Yusupovning "O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyoti va Furqat" nomli uslubiy qo'llanmasi nashr etildi, N.Jabborovning "Furqat asarlarining qo'lyozma manbalari" [3] mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi yozildi.

Furqat tavalludining 150 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-uslubiy maqolalar to'plamida shoir ijodini tadqiq etish ishlari XX asrning 30-yillarida ancha dadillashgani aytib o'tiladi. To'plamga kiritilgan ilmiy maqolalar, jumladan, N.Soatxo'jayevning "Furqatning "Turkiston viloyati gazetida bosilgan maktub va maqolalarida o'zlashma so'zlar" va I.Po'latovning "Furqat asarlari tilida qo'llangan rang bildiruvchi so'zlar semantikasi" sarlavhali maqolalari lingvistik nuqtayi nazardan o'rganishlar hisoblanadi.

N.Soatxo'jayevning ta'kidlashicha, Furqatning turli mavzulardagi maktub va maqolalarida o'sha davr uchun yangi bo'lgan so'zlar, iboralar ko'p ishlatilgan. Masalan, Istanbuldan yuborilgan maktubida *stansiya*, *vokzal*, *starshina*, *konvert*, *telegram*, *pochtaxona*, *gazet* kabi ruscha-baynalmilal so'zlarni ishlatdi. Poyezdni "Otash aroba" deb atagan. Shoirning ijodida rus tili va u orqali o'zlashtirilgan so'zlar miqdori ko'p. Ta'kidlanganidek, Rossiya tomonidan o'lkamizning bosib olinishi natijasida turmushning turli sohalari qatori o'zbek tili leksikasi ham ko'plab yangi so'zlar bilan boyigan, xususan, *zakun*, *akt*, *gimnaziya*, *zal*, *teatr*, *bilet*, *vistavka*, *moshina*, *bal*, *zovut*, *raport*, *general gubernator*, *voyenniy gubernator*, *podpolkovnik*, *gradus*, *redaksiya*, *sayoz* (ruscha "syezd" so'zining buzilgan shakli) so'zlari bunga misol bo'lishini qayd etadi. Furqat tomonidan

bunday soʻzlar faol qoʻllanilganligiga urgʻu beradi [14]. Shuningdek, olim Furqatning oʻzbek adabiy tilini fors-tojik, arab va rus tillarining grammatik shakllari va leksik unsurlari bilan boyitgani haqida yozadi.

I.Poʻlatov Furqat asarlari tilida rang bildiruvchi soʻzlar semantikasini tahlil qilib, qora, sarigʻ, gulrang kabi oʻnlab leksik birliklarning gʻazallarda maʼlum bir maʼno tashishini sharhlab beradi. Masalan, “qora” maʼnosida fors tilidan olingan “siyah” soʻzi ham ishlatilishi, bunda ham raqibning oʻz aybi bilan yuzi qora boʻlishi maʼnosi ifodalanganligini izohlab beradi. Shuningdek, olim axzar (yashil, koʻk), ahmar (qizil), zaʼfaron (sariq), kofur (oq), mutarro (toza, tiniq, yaltiroq) kabi arab tilidan oʻzlashgan soʻzlar uchrashini taʼkidlagan. Umuman olganda, N.Soatxoʻjayev va I.Poʻlatovning Furqat gʻazallarining til xususiyatlariga bagʻishlangan tadqiqoti shoir ijodi lingvopoetikasini tadqiq etishda oʻz ahamiyatiga ega.

Taʼkidlanganidek, badiiy matn oʻrganish obyekti sifatida ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslikka birdek taalluqlidir. U tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda, “til kategoriyalari – leksik, fonetik, morfologik va sintaktik birliklaridan qay darajada foydalanganliklari” [4] ga eʼtibor qaratiladi. Tanlab olingan badiiy matnni hosil qilgan soʻz, soʻz birikmalari va gap turlarining tahlili, uning boshqa adabiy matnlardan farqlovchi til xususiyatlari oʻrganilib, maʼlum ilmiy xulosalarga kelinadi. Oʻrganish obyekti sheʼriy yoki nasriy matn boʻlishidan qatʼiy nazar, undagi badiiy nutq turlari – ichki va tashqi, yozma va ogʻzaki, diolog va monologlarning qoʻllanilishi tadqiq etiladi.

Tilshunos olim J.Lapasov aynan badiiy matnda qoʻllanuvchi leksik va ekspressiv-stilistik vositalar tahlili haqida soʻz yuritadi, oʻzining nazariy mulohazalarini amaliy jihatdan isbotlash maqsadida Zokirjon Furqat lirikasidan sara namunalarni keltiradi. Masalan, olim Furqat ijodidagi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlari adabiy tiliga xos boʻlgan yangi soʻzlar koʻp ishlatilganligini badiiy matnda neologizmlarning qoʻllanilishi tahlilini berish chogʻida aytib oʻtadi, shoirning oʻziga xos badiiy til imkoniyatlarini misollar yordamida koʻrsatib beradi:

Qilib taklif bir zoti kiromi,

*Kirib **gimnaziya** ko‘rduk tamomi...*

Kirib alqissa hikmatxona ichra,

*Hama ilmini ko‘rduk **telegromi**.*

Mazkur kitob o‘zbek tilshunosligida lingvopoetik tadqiqotlarning olib borilishida nazariy va amaliy ahamiyatga ega ilmiy manba, shuningdek, mustaqillikning dastlabki yillarida Furqat merosining lingvistik tadqiqi borasidagi izlanishlar namunasi sifatida ham qimmatlidir.

XULOSA

Furqat adabiy merosining o‘rganilishi, asosan, adabiyotshunoslik, matnshunoslik nuqtayi nazaridan keng ko‘lamli bo‘lib, shoir ijodining lingvistik xususiyatlari borasidagi o‘rganishlar juda kam. Shu jihatdan olib qaraganda, Furqat she‘riyati leksikasi, xususan, uning lirik asarlari lingvopoetikasiga doir yirik tadqiqotlar olib borish bugungi tilshunoslik oldidagi muhim vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. АбдуғафуровА. Зокиржон Фурқат. – Тошкент, 1977.
2. Фурқат. Мухаммас Мухаммад Худоёрхон тилидан. Шўро. – Оренбург, 1909, –№1.
3. Жабборов Н. Фурқат асарларининг қўлёзма манбалари: Филол.ф.н-ди... дисс. – Тошкент, 1994.
4. Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент, 1995. – Б. 8.
5. Остроумов Н. П. Сарты. Этнографические материалы. – Тошкент, 1896.
6. Қаямов А. Шоир Фурқат // Шарқ юлдузи, 1986, –№4-5, 1989. –№5-6.
7. Расул Х. Зокиржон Фурқат ижоди. Тошкент, 1954; Фурқат – маърифатпарвар, демократ шоир. Тошкент, 1954.
8. Русия Археология жамияти Шарқ бўлими Ахбороти.VIII жилд. – Санкт Петербург, 1909, –№12.
9. Хабар-мақола // Таржимон. 1896. –№ 32.
10. Юсупов Ш. Фурқат йўлларида. – Тошкент, 1984.
11. Юсупов Ш. Фурқат ва ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг янги босқичи: Филол.ф. д-ри... дисс. – Тошкент, 1990.
12. Юсупов Ш. Худоёрхон ва Фурқат. – Тошкент: Шарқ, 1995.
13. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/begali-qosimov-nurboy-jabborov-furqat-1859-1909>.

14. <https://aim.uz/referaty/52-literatura/18297-zokirzhon-kholmu-ammad-li-furat-tavalludining-150-jilligiga-ba-ishlangan-ilmij-uslubij-ma-olalar-t-plami.html>